



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'YOYALAR



### FARZAND TARBIYASIDA “ITOATKOR BOLA” TARBIYANING YUTUG’IMI YOKI MUSTAQILLIKNING SO‘NISHI.

**Haydarova Kamolaxon Zokirjon qizi**

*Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi*

**Meliqo‘ziyeva Odinaxon Bahromjon qizi**

*Qo‘qon Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ota-onalar orasida keng tarqalgan, biroq yetarlicha tahlil qilinmagan tushuncha — "itoatkor bola" fenomeni chuqur yoritiladi. Jamiyatda ko‘plab oilalar tarbiyalangan bola deganda buyruqqa so‘zsiz bo‘ysunadigan, kattalarga qarshi fikr bildirmaydigan, jimgina harakat qiladigan farzandni tasavvur qilishadi. Bunday model ko‘plab oilalarda ideal sifatida qaraladi. Ammo maqolada bu kabi itoatkorlik bolaning ichki dunyosi va shaxsiy rivojiga qanday salbiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy va psixologik manbalar asosida tahlil etiladi. Itoatkorlik doimo ijobiy sifatmi? Bu savol maqola markazida turadi. Bola har doim gapga qulqolsa, u mustaqil qaror qabul qilishni, o‘z fikrini aytishni o‘rganmay qolmayaptimi? O‘z fikrini bildirishdan qo‘rqadigan, tashqi bosimlarga tez bo‘ysunadigan yoshlar jamiyat uchun qanday oqibatlarga olib keladi? Maqolada muvozanatli tarbiyaning zarurligi, ya’ni intizom bilan birga erkin fikr, mustaqillik va tashabbusni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham beriladi. Bu esa ota-onalar, pedagoglar va tarbiyachilar uchun dolzarb yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Tarbiya, bola, odobli, itoatkorlik, passivlik, o‘zboshimchalik, mustaqillik

"Tarbiya — bu bolani boshqarish emas, balki unga  
o‘zini boshqarishni o‘rgatishdir."

Rudolf Dreikurs.

#### **Kirish:**

Bugungi jamiyatda farzand tarbiyasi masalasida ko‘plab qadriyatlar va yondashuvlar to‘qnash kelmoqda. Ayniqsa, ota-onalar uchun “itoatkor bola” ideali o‘z o‘rnini mustahkam egallab kelmoqda. Katta gapiga qarshi chiqmaydigan, buyruqqa so‘zsiz bo‘ysunadigan, jimgina yuradigan bola ko‘pchilik nazarida “tarbiyali”, “odobli” farzand sifatida baholanadi. Biroq masalaga chuqurroq nazar tashlasak, bu kabi itoatkorlik bolada mustaqil fikrlash, shaxsiy tashabbus va o‘z yo‘lini tanlash qobiliyatining yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Mashhur pedagog Vasil Sukhomlinskiy takidlaganidek: “Bola doim gap eshitadigan emas, fikrlay oladigan inson bo‘lib ulg‘aymog‘i zarur”. Bu fikr zamonaviy pedagogikada ham o‘z tasdig‘ini topmoqda. Masalan, Daniyalik psixoterapevt Jesper Juul bolani haddan ortiq itoatga o‘rgatish natijasida uning o‘zini ifoda etish qobiliyati pasayishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, bolaga nisbatan ishonchli munosabat va dialog orqali o‘z fikrini bildirish madaniyati shakllanishi kerak (Juul, Your Competent Child, 2001).





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Psixologik jihatdan olib qaralganda, bo‘ysunuvchanlik doim ham ijobiy natijalar bermaydi. Haddan ortiq itoat bolani tashqi muhitga tobekida ulg‘aytiradi, bu esa keyinchalik qaror qabul qilishda qat’iylik, ijtimoiy jasorat va shaxsiy tanlovlarda sustkashlik keltirib chiqaradi (Kohn, Unconditional Parenting, 2005).

Demak, savol ochiq: biz "yaxshi bola" deganda itoatni ko‘zlayapmizmi, yoki fikrlay oladigan mustaqil shaxsni?

Hikoya: "Oq daftar"

Bolaligimda menga bir oq daftar berishgan edi. "Bu sening hayoting, uni chiroyli yoz," deyishdi. Meni har bir satrda ehtiyyot bo‘lishga o‘rgatishdi. "Ko‘p yozma, xato bo‘ladi," deyishdi. "Savoling bo‘lsa, ichingda saqla, notanish savol ota-onangni sharmanda qiladi," deyishdi.

Men yozmadim. Chiroyli yozuvdan qo‘rqdim. Yomon ko‘rinishdan ham. Men daftarni toza saqladim. Bu bilan faxrlanishdi. "Qaranglar, bolamiz naqadar aqli! Bahs qilmaydi, jim yuradi. Tinch!" deyishdi. Men boshimni egdim. Yana jim turdim. Ichimda esa to‘lib-toshayotgan so‘zlar, savollar, "nima uchun?" degan javobsiz fikrlar yuragimning chetidan joy topa olmadi.

Katta bo‘ldim. O‘sha oq daftar hamon men bilan. Ammo u hamon deyarli bo‘sh. Endi men yozmoqchiman. Lekn qayerdan boshlashni bilmayman. Men bu daftarni toza saqlaganim bilan, unga o‘zimni sig‘dira olmay qolganimni endi tushundim.

### **Metodologiya:**

Boladagi itoatkorlik nima?

Itoatkorlik — bu bolaning kattalar (odatda ota-on, o‘qituvchi) ko‘rsatmalariga, talablariga so‘zsiz bo‘ysunishi, qarshilik qilmasdan, tanqidiy yondashmasdan bajarishga intilishi. Bu sifat ko‘pincha “odobi bor”, “intizomli”, “tinch bola” kabi ijobiy ifodalar bilan talqin qilinadi.

Foydali jihatlari:

1. Intizomni shakllantiradi – bola tartibga, vaqtini to‘g‘ri rejalahsga o‘rganadi.
2. Jamoada murosa qilishni o‘rganadi – jamoaviy muhitga moslashadi.
3. Xavfsizlikni ta’minlaydi – yosh bola ayrim hollarda kattalarning ogohlantirishlariga bo‘ysunib, o‘zini himoya qiladi.
4. Mas’uliyatga yo‘l ochadi – intizomli bola keyinchalik mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga osonroq tayyor bo‘ladi.

Zararli jihatlari :

1. Tanqidiy fikrlash susayadi – doim buyruqqa amal qilgan bola savol bermaydi, sababga qiziqmaydi.
2. Shaxsiy fikrni bildira olmaydi – o‘z nuqtayi nazaridan voz kechadi, ijtimoiy bosimga tez taslim bo‘ladi.
3. Mustaqillik yo‘qoladi – qaror qabul qilishda har doim boshqalarga qaram bo‘lib qoladi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



4. Psixologik zo'riqish paydo bo'ladi – bolalikdan bosim ostida ulg'aygan bola ruhiy siqilish, o'ziga ishonmaslik, passivlik bilan yashaydi.

5. Yaratijilik pasayadi – yangicha fikr, tashabbus, erkin ifoda qilish qobiliyati sustlashadi.

Mustaqillik — bu bolaning o'z fikriga ega bo'lishi, qaror qabul qilishga, tanlov qilishga, o'zini ifoda etishga va mas'uliyatni zimmasiga olishga qodir bo'lish holatidir. Bu nafaqat amaliy harakatlarda (kiyinish, ovqatlanish, o'qish), balki fikrlash, munosabat bildirish, his-tuyg'ularni anglash va ichki erkinlik darajasida ham namoyon bo'ladi.

Psixolog Jan Piaget, pedagog Vasil Sukhomlinskiy, shuningdek tarbiya nazariyachisi Jesper Juullarning fikrlariga ko'ra, bola tabiatiga ko'ra o'ziga xos va erkin shaxsdir. Tarbiya jarayonida uning mustaqilligini rag'batlantirish — shaxsni shakllantirishning asosiy vositasidir.

Bolaning mustaqilligining ijobiy tomonlari:

1. Tanqidiy va erkin fikrlash rivojlanadi
2. Bola hayotni shunchaki qabul qilibgina qolmaydi, balki uni tahlil qiladi, savollar beradi va o'z fikrini shakllantiradi.
3. Mas'uliyat hissi kuchayadi

Mustaqil bola o'z qarorining oqibatini anglab, noto'g'ri bo'lsa, uni tuzatishga urinadi. Bu esa uni hayotga tayyorlaydi.

4. Ijodkorlik va tashabbus oshadi. Erkin muhitda ulg'aygan bola o'z fikrini yangi g'oyalar orqali ifodalay oladi, yangilikdan qo'rqlaydi. O'ziga ishonch paydo bo'ladi. Mustaqillik bolaning o'z qadrini anglashiga, o'z shaxsiga hurmat bilan qarashiga olib keladi.

5. Muammolarni mustaqil hal qilishga o'rganadi Hayotiy sinovlar oldida boshqalarga tobe bo'lmay, o'z yechimlarini topishga harakat qiladi. Ichki erkinlik – bola o'zini o'ziga tegishli inson sifatida his qiladi, bu esa ruhiy sog'lomlikka olib keladi.

Bolaning mustaqilligiga xos mumkin bo'lgan salbiy holatlar: Bu salbiy jihatlar noto'g'ri yondashuvda yoki nazoratsiz muhitda yuzaga chiqadi. Haddan tashqari mustaqillik – individualizmga olib keladi. Bola faqat o'zini o'ylaydi, jamoaga moslasha olmaydi, jamoaviy mas'uliyatdan chekinadi.

Kattalar bilan mojarolar kuchayadi. Ota-onaning yoki o'qituvchining har bir gapiga qarshilik ko'rsatish, tartibni buzish hollari ko'payadi. Tajribasizlik sababli noto'g'ri qarorlar qabul qilishi mumkin Har doim mustaqil bo'lishga intilgan bola kattalar maslahatiga quloq solmasligi, xatolarni takrorlashiga olib kelishi mumkin.

O'zboshimchalik va o'zbilarmonlik. Me'yordan chiqib ketgan mustaqillik — nazoratdan chiqishga, "men bilaman" degan fikr bilan boshqalarning fikrini inkor etishga olib keladi.

Bola uchun faqat itoat – passivlikka, faqat mustaqillik esa o'zboshimchalik va tartibsizlikka olib keladi. Shuning uchun tarbiya jarayonida bu ikki sifatni bir butunlikda shakllantirish – zamonaviy pedagogikaning eng muhim yo'nalishidir. Bu metodologiya ana shu g'oya asosida yo'naltirildi: intizomli, lekin erkin, bo'ysunuvchi, lekin fikrli, hurmatli,





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



lekin mas'uliyatli bola yetishtirish. Demak muammoyimiz bolani o'ta itoatkor qilib tarbiyamaslik bo'lsa, itoatkorlikning asl kelib chiqish sabablariga to'xtalamiz. Bola tarbiyasida o'ta itoatkorlikning shakllanishi: sabablari va yashirin omillar. O'ta itoatkorlik — bu bolaning har qanday vaziyatda kattalar so'ziga so'zsiz bo'ysunishi, o'z fikrini bildirishdan qo'rishi, qarshi chiqishdan tiyilishi va doimo "to'g'ri bo'lishga" intilishi holatidir. Bu sifat ko'pincha tashqi tomondan intizom, odob, tarbiya mevasidek ko'rindi. Ammo uning ildizlari chuqurroq, ba'zan psixologik bosim, nazorat, va emotsiyal shartlashuvdan kelib chiqadi.

Asosiy sabablari:

1. Avtoritar tarbiya uslubi. Ota-onasi yoki o'qituvchi bolani doim buyruq asosida boshqaradi: "gap qaytarmagin", "katta aytdimi — bo'ldi", "men nima desam, shuni qilasan." Bu doimiy bosim bolaning shaxsiy fikrini shakllanishiga to'sqinlik qiladi.
2. Shartsiz bo'ysunish talab qilinadigan muhit. Bola biror fikr bildirsa, jazolanadi, tanbeh eshitadi yoki rad etiladi. U asta-sekin fikr aytmaslik, har doim "rozi" bo'lishni o'rganadi.
3. Sevgi va e'tiborni olish uchun itoat yo'lini tanlash. Bola kattalar tomonidan maqtalish, mehr ko'rish uchun o'zini "namunali" tutishga harakat qiladi. Uchinchi shaxslar (boshqa aka-ukalar yoki tengdoshlar) bilan solishtirish kuchayganda, bola shunchaki itoat bilan o'zini qadrlatishga urinadi.
4. Qo'rquv orqali boshqarish. "Agar meni tinglamasang, jazo beraman", "Men rozimasman, sen noto'g'ri qilayapsan" kabi iboralar orqali bola haddan tashqari ehtiyyotkor, xavotirli va bo'ysunuvchan bo'lib qoladi.
5. Bolalikdagi xavfsizlik instinkti. Bola o'zini xavfsiz his qilmaydigan muhitda (masalan, janjal, jazolash, beqarorlik) instinkтив tarzda o'zini "yaxshi bola" qilib ko'rsatishga, hech narsaga aralashmaslikka, jim turishga harakat qiladi.

Yashirin (ong ostidagi) omillar: chki o'ziga ishonchsizlik — "Men noto'g'ri fikr bildiraman, meni tanqid qilishadi" degan qo'rquv. Mehrni yo'qotishdan qo'rqish — "Agar qarshi chiqsam, meni yaxshi ko'rishmaydi" deb o'laydi.

Shaxsiy qadriyatlar shakllanmasligi — Bola doim boshqaga qarab yo'naladi, o'z printsiplari bo'lmaydi. Erkinlik va fikr bildirish tajribasining yo'qligi — bola hech qachon "Sen nima deb o'ylaysan?" degan savol eshitmagan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga mustaqillikning kelib chiqish sabablarini bilan ham tasnihib o'tamiz: Bolalik davrida shakllanadigan o'ta mustaqillik — bu bolaning ortiqcha erkinlik, nazoratning yo'qligi yoki psixologik ehtiyojlarning qondirilmasligi natijasida hech kimdan maslahat so'ramaslik, faqat o'z qarorlariga tayangan holda harakat qilishga o'rganib qolishidir. Bu holat tashqi tomondan ijobiydek ko'rinsa-da, aslida chuqur tahlil qilinsa, bu — shaxsiy rivojlanishdagi muvozanatsizlik belgilariidan biridir.

Quyida o'ta mustaqillikning asosiy sabablari keltirilgan:

1. E'tibor va hissiy yaqinlikning yetishmasligi. Ota-onasi doim band, sovuq, befarq yoki juda ko'p janjal qiladigan muhitda ulg'aygan bola o'zini himoya qilish uchun ichki





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



strategiya sifatida “men o‘zimga ishonaman” degan pozitsiyani tanlaydi. Bu esa asta-sekin hech kimga bog‘lanmaslik, hatto hissiy yaqinlikdan ham qochishga olib keladi.

2. Haddan tashqari erkinlik berish. "Farzandimga hech qanday cheklov qo‘ymayman", "O‘zi biladi, o‘zi qaror qiladi" degan prinsiplar ba’zan nazoratsizlikka aylanadi. Bola muammoga duch kelganda boshqalardan yordam so‘rashni emas, o‘zboshimcha harakat qilishni o‘rganadi. Bu esa sotsial ko‘nikmalarning shakllanmasligiga olib keladi.

3. Yoshlikdagi erta mustaqillikka majbur bo‘lish. Ba’zi bolalar hayotiy sharoit tufayli (ota-onal chet elda ishlashi, yolg‘izlik, oilaviy muammolar) o‘z ehtiyojlarini erta yoshdan o‘zi qondirishga majbur bo‘ladi. Bu holat ularda boshqalarga ishonmaslik, faqat o‘z kuchiga tayanish odatini shakllantiradi.

4. Ijtimoiy bosim va mukammallik talabi. Ba’zan ota-onalar “sen boshqalardan zo‘r bo‘lishing kerak”, “o‘zing hal qil”, “hech kimga tayanma” kabi iboralar bilan farzandni o‘ta mustaqil bo‘lishga undaydi. Bu esa bola shaxsiyatida tashqi yordamsiz yashashga bo‘lgan majburiy ehtiyojni keltirib chiqaradi.

5. Ishtiroksiz tarbiya (emotsional befarqlik). Ota-onaning ruhiy jihatdan mavjud bo‘lmasligi — ya’ni bolani faqat moddiy ta’minlash, lekin u bilan muloqot qilmaslik, bolada “men faqat o‘zimga kerakman” degan ongni shakllantiradi.

Itoatkorlik va mustaqillikni muvozanatda ushlab borish usullari va takliflar. Tarbiyaning eng nozik jihatlaridan biri bu — bolada itoatkorlik va mustaqillik kabi ikki qarama-qarshi sifatni bir vaqtning o‘zida me’yorida rivojlantira olishdir. Bu holat nafaqat bolaning shaxsiy rivoji, balki uning kelajakdagi ijtimoiy hayotga moslashuvi, qaror qabul qilish qobiliyati, tanqidiy fikrlashi va axloqiy asoslari uchun ham nihoyatda muhimdir. Quyida bu ikki sifatni uyg‘unlashtirishga xizmat qiluvchi asosli usullar va takliflar keltirilgan:

1. Muloqotga asoslangan tarbiya yo‘li. Bolaning har bir qaroriga “nima uchun bunday qilding?”, “sen nima deb o‘ylaysan?” kabi savollar orqali murojaat qiling. Bu bolaning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlaydi, ayni vaqtida uni eshitish orqali unga hurmat ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, muloqotda chegaralar belgilansa, itoatkorlik tabiiy shakllanadi.

2. Mas’uliyatni kichik-qadamlar bilan o‘rgatish. Bolangizga kichik-kichik tanlovlар orqali mustaqillikni ishonib topshiring: nima kiyishini tanlash, kitob yoki ovqat tanlash. Ammo har bir tanlov ortidan javobgarlik va natijani tushuntirib boring — bu itoatning ongli shakliga olib keladi.

3. Qoidalarning izchilligi va tushuntirishi. Har qanday tartib yoki qoidani shunchaki buyruq sifatida emas, balki sabab va maqsadi bilan tushuntiring. “Buni qil, chunki men shunday dedim” o‘rniga: “Bu ishni qilishimiz xavfsizlik uchun kerak” kabi yondashuv bolada itoatni majburlik emas, tushuncha asosida shakllantiradi.

4. Mehr va ishonch muhitini yaratish. Bola itoatkor bo‘lishga emas, eshitilayotgan, qadrlanayotgan inson sifatida o‘zini his qilishi kerak. Bu holatda bola nafaqat buyruqqa emas, balki ishonch asosidagi munosabatga javoban harakat qiladi. Bunday muhitda itoat ham, mustaqillik ham muvozanatda shakllanadi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



5. Ijobiy namuna ko'rsatish. Bola kattalardan o'rnak oladi. Agar ota-onas o'z xatti-harakatlarida intizomli, lekin erkin fikrlovchi shaxs bo'lsa, bola bu muvozanatni tabiiy o'zlashtiradi. Shuning uchun tarbiyachi yoki ota-onas birinchi navbatda o'zida bu uyg'unlikni shakllantirishi zarur.

6. Erkinlik chegaralarini aniqlab berish. Bola erkin bo'lishi mumkin bo'lgan maydonlarni aniq belgilash kerak: "Sen ushbu narsani o'zing hal qilishing mumkin, lekin bu masalada men yordam beraman." Bu yondashuv mustaqillikni nazoratdan chiqmasdan rivojlantirishga yordam beradi.

O'ta itoatkorlik yoki o'ta mustaqillik – ota-onas uchun yutuq emas. Ko'pchilik ota-onalar uchun "itoatkor bola" yoki "mustaqil bola" — bu ideal tarbiyaning belgisi, mevasidek tuyuladi. Biroq aslida boladagi o'ta itoatkorlik ham, o'ta mustaqillik ham sog'lom tarbiya natijasi emas, balki ko'pincha tarbiya muvozanatining buzilganini ko'rsatadi.

♦ O'ta itoatkorlik: Tashqi intizom – ichki bosim.

Itoatkor bola har bir aytilgan ishni shartsiz bajaradi, kattalarga qarshi chiqmaydi, doimo "to'g'ri" bo'lishga intiladi. Bu holat tashqi tomondan yaxshi bo'lib ko'rinsa-da, bolaning ichki erkinligi so'nadi, u o'z fikrini bildirishdan qo'rqadi, tanlov qilishdan tiyiladi. Ota-onas esa bunday bolani "a'lo darajadagi tarbiya mahsuli" deb o'ylashi mumkin. Aslida esa, bu holat bola uchun bosim, ota-onas uchun esa xavfli xayolparastlikdir. Chunki bu bola mustaqil hayotda muammolarni hal qila olmaydi, o'z fikrini himoya qila olmaydi va boshqalarga haddan ortiq bo'ysunishga moyil bo'ladi.

♦ O'ta mustaqillik: Erkinlik – javobgarliksiz erkinlik. Boshqa tomondan, "bola o'ziga o'zi yetadi, hech kimdan yordam so'ramaydi" degan tasavvur ham ba'zida ota-onalarning "foydali bola" haqidagi xom xayolidir. Biroq bu haddan tashqari mustaqillik ko'pincha bolaning emotsiyal ehtiyojlari rad etilganida shakllanadi. Bunday bola yordamsiz ulg'aygan, hech kimga tayanmaydigan, hissiy aloqa va ishonchni yo'qotgan shaxsga aylanishi mumkin. Bu esa ota-onas bilan chuqur hissiy aloqaning zaifligidan dalolat beradi.

♦ Asl yutuq – muvozanatlari bola. Ota-onas uchun haqiqiy yutuq bu — tartibli, lekin savol bera oladigan, hurmatli, lekin fikr bildiradigan, mas'uliyatli, lekin yordam so'rashdan uyalmaydigan bola tarbiyalashdir. Chunki bu bola nafaqat boshqalarga moslashadi, balki o'zligini anglab, hayotiy qarorlarni ongli ravishda qabul qila oladi. Ota-onaning yutug'i bola o'z hayotini ongli, sog'lom, erkin va mas'uliyatli tarzda boshlaganidadir — so'zsiz itoatda emas, yolg'iz mustaqillikda emas, muvozanatda.

**Xulosa:** Farzand tarbiyasida itoatkorlik va mustaqillik o'rtasidagi muvozanat — sog'lom shaxsni shakllantirish yo'lida eng nozik, ammo hal qiluvchi mezondir. Ko'pchilik ota-onalar itoatkorlikni tarbiyaning eng yuksak yutug'i, mustaqillikni esa bolani hayotga tayyorlaydigan vosita sifatida ko'radi. Ammo bu ikkala sifatning o'ta shakli bolaning shaxsiy rivojiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. O'ta itoatkor bola o'z fikrini bildirishdan cho'chiydi, tanqidiy qarashdan yiroq bo'ladi, o'z hayoti uchun javobgarlik olishni kechikadi. O'ta mustaqil bola esa o'z muammolarini hech kim bilan bo'lishmaydi, yordam





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



so‘rashni zaiflik deb biladi, his-tuyg‘ularini bostiradi va ijtimoiy ajralishga moyil bo‘lib qoladi.

Aslida esa, tarbiyaning yutug‘i bolaning har tomonlama uyg‘un rivojlanishidadir. U kishi so‘zini hurmat qila oladigan, lekin o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan bo‘lishi kerak. U buyruqqa emas, tushunishga asoslangan itoatni anglasin. U tanlov qila oladigan, lekin har bir tanlovingin oqibatini his qiladigan shaxs bo‘lib ulg‘aysin. Bu esa faqat muvozanatli tarbiya, mehr va nazorat uyg‘unligi, ishonchli muloqot orqali yuzaga keladi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki: tarbiya bu — bolaning boshini egish emas, uni ko‘tarish san’atidir. Shuning uchun farzandga itoat qilishni emas, fikrli itoatni, mustaqil bo‘lishni emas, mas’uliyatli mustaqillikni o‘rgatish — ota-onaning eng katta yutug‘idir. Zamon o‘zgarar, jamiyat yangilanar ekan, bola tarbiyasidagi qadriyatlar ham qayta ko‘rib chiqilmoqda. Endilikda tarbiya – bu bolani faqat nazorat qilish, itoatga o‘rgatish emas, balki uni o‘zini anglashga, fikr bildirishga, tanlashga va o‘rganishga undash sanaladi. Bu esa ota-onadan faqat sevgi va qoidani emas, balki balansni his qilish, farzand ruhiyatini tushunish, vaqt ajratish va tinglay olish fazilatlarini talab qiladi. Ayniqsa, bugungi raqamli va ochiq axborot makonida o‘sib kelayotgan avlod — bu mustaqil qaror qilish, baholash, tanqidiy fikrlashga intilayotgan bolalardir. Ularni faqat itoatkor bo‘lishga majburlash — ularning ichki kuchini sindirish, faqat mustaqillikda qoldirish esa — ularga yo‘l-yo‘riqsiz hayot kechirish xavfini tug‘diradi. Demak, yutuq na bo‘ysunishda, na yolg‘iz mustaqillikda — yutuq muvozanatda. Farzand tarbiyasida eng katta yutuq — bu u bizning orzularimizdagи emas, o‘z orzularini ongli va mas’uliyatli tarzda quvlay oladigan shaxsga aylanishidir. Ota-onaning vazifasi — bu yo‘lda yo‘l ko‘rsatish, lekin bolani o‘z hayotining yo‘lovchisiga aylantira olishdir. Bola itoat qilmasligi emas, fikr bildirishi uchun qo‘rmasligi; o‘zicha emas, o‘zi bo‘lishi muhimdir. Aynan shunday muvozanatli tarbiya orqasidagina jamiyatimizga mustahkam, erkin va axloqiy poydevorga ega avlodni yetishtirishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ–144-son, 2022-yil 28-fevral: "Yangi O‘zbekiston ma’naviyatini yuksaltirish va ma’rifat targ‘ibotini samarali tashkil etish to‘g‘risida". (Zamonaviy shaxs tarbiysi bo‘yicha davlat yondashuvi.)
2. Ravshanova, D.X. (2020). Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti. (O‘zbekistondagi tarbiya psixologiyasi asoslari.)
3. Yuldasheva, G.T. (2021). Bola tarbiyasida oilaning roli. O‘zbekiston Milliy universiteti, ijtimoiy fanlar fakulteti. (Oila muhitida shakllanuvchi axloqiy fazilatlar haqida.)
4. Kamolaxon H., Abbosjon T., Nurmatov S. DEVELOPMENT OF A DEVICE PROJECT THAT DETERMINES THE AMOUNT OF ELEMENTS THAT ENSURE





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



SOIL FERTILITY (POTASSIUM, CALCIUM, NITROGEN) //QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2025. – T. 14. – C. 242-247.

5. Melikozieva O., Haydarova K. METHODOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS THROUGH SOCIAL STORIES WITH YOUNG CHILDREN WITH AUTISM //Journal of Applied Science and Social Science. – 2025. – T. 1. – №. 4. – C. 184-190.

6. Haydarova K. The Role of Women in Modern Artificial Intelligence and Robotics //International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 1. – №. 3. – C. 716-721.

7. Haydarova K. TUPROQ NPK SENSORI VA ARDUINO: O'SIMLIKLARNI SOG 'LOM O 'STIRISH UCHUN AQLLI MONITORING TIZIMI //QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2024. – T. 13. – C. 390-392.

8. Haydarova K. ROBOTOTEXNIKA: IT SOHASIDAGI AHAMIYATI VA O'RGANILISH DARAJASI //University Research Base. – 2024. – C. 1004-1006.

